XALQ DEPUTATLARI YANGI NAMANGAN TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 12 - may VI-15-21-6-222-K/23 Yangi Namangan tuman hokimligi

Yangi Namangan tumanidagi “Nurli kelajak”, “Sadoqat”, “Binokor” MFYlarni tugatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son qarori, Yangi Namangan tumani hokimining 2023 yil 31 martdagi 01/10-1206-son taqdimnomasi va Yangi Namangan tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tomonidan 2023 yil 31 martdagi 01-03/55-sonli bildirishnomasi hamda “Nurli kelajak”, “Sadoqat”, “Binokor” MFYlarning iltimosnomasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 6 va 24-moddalari asosan xalq deputatlari Yangi Namangan tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yangi Namangan tumani hokimining 2023 yil 31 martdagi 01/10-1206-son taqdimnomasi, tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tomonidan 2023 yil 31 martdagi 01-03/55-sonli xati hamda “Nurli kelajak”, “Sadoqat”, “Binokor” MFYlarning iltimosnomasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Yangi Namangan tumanidagi “Nurli kelajak”, “Sadoqat”, “Binokor” MFYlarni tugatilsin.

Shu munosabat bilan “Nurli kelajak” MFY hududi “Kelajak tongi” MFY hududiga, “Binokor” MFY hududi “Istiqbol” MFY hududiga, “Sadoqat” MFY

hududi “Ishonch” MFY hududiga qo‘shilsin.

3. Qaror qabul qilinishi murosabati bilan quyidagilar:

“Kelajak tongi” mahallasi chegara tavsifi va chizmasi 1-ilovaga muvofiq;

“Istiqbol” mahallasi chegara tavsifi va chizmasi 2-ilovaga muvofiq;

“Ishonch” mahallasi chegara tavsifi va chizmasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Nurmatov):

- tugatilayotgan mahallalarda yuritilgan idoraviy hujjatlarni belgilangan tartibda arxivga topshirish;

- tugatilayotgan mahallalarga tegishli muxr va tamg‘alarni tuman IIBga topshirish;

- tugatilayotgan mahallalarning tovar-moddiy boyliklarni begilangan tartibda inventarizatsiyadan o‘tkazish va Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi balansiga o‘tkazishni ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Nurmatov), Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (J.Ataxodjaev) tugatilayotgan mahallalar xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining tegishli moddalari asosida mehnat shartnomalarini bekor qilish va ularni ish bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Tuman statistika bo‘limi (F.Abdullaev), qurilish bo‘limi (Sh.Atabaev) Kadastrlar palatasi Namangan shahar bo‘limi (M.Tursunbaev) bilan birgalikda chegaralari o‘zgarayotgan mahallalarni qayta davlat ro‘yhatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlarni ko‘rsin.

7. Tuman moliya bo‘limi (Sh.Jamalov)ga “Nurli kelajak”, “Sadoqat”, “Binokor” mahallalarning tugatilishi bilan amaldagi me’yoriy hujjatlarga asosan belgilangan tartibda mahalliy byudjet parametrlariga tegishli o‘zgartirish vazifasi yuklansin.

8. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

9. Ushbu qaror e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi

Xalq deputatlari Yangi Namangan tumani Kengashi raisi

J.Abdullayev

Xalq deputatlari Yangi Namangan
tuman Kengashining
2023 yil 12 maydagi
VI-15-21-6-222-K/23-son qaroriga
1-ilova

Yangi Namangan tuman Kelajak tongi mahallasining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

TARHI



Xalq deputatlari Yangi Namangan
tuman Kengashining
2023 yil 12 maydagi
VI-15-21-6-222-K/23-son qaroriga
2-ilova

Yangi Namangan tuman Istiqbol mahallasining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

TARHI



Xalq deputatlari Yangi Namangan
tuman Kengashining
2023 yil 12 maydagi
VI-15-21-6-222-K/23-son qaroriga
3-ilova

Yangi Namangan tuman Ishonch mahallasining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

TARHI

